



## Soʻz erkinligi va ommaviy axborot vositalari

3-betda oʻqing



## B2 darajadagi sertifikat majburiymi?

7-betda oʻqing

# INSON va qonun

2023-YIL  
19-SENTABR  
SESHANBA

№ 37 (1397)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



“ADOLAT” milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna boʻling!



“Adolat nashrlari” telegram kanalida kuzating!



[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

Mamlakatimizda intellektual mulk tizimini avtomatlashtirish boʻyicha Koreya delegatsiyasi bilan muzokaralar boshlandi.



## KOREYALIK HAMKORLAR BILAN UCHRASHUV

Ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Koreya intellektual mulk idorasi (KIPI) KOICA oʻrtasida “Intellektual mulk tizimini avtomatlashtirish” dasturi boʻyicha hamkorlik amalga oshirilib kelinmoqda. Kecha mazkur hamkorlik doirasida Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti rahbari Ye. Kanyazov boshchiligidagi ishchi guruh va Koreya Respublikasidan kelgan bir guruh delegatsiya aʼzolari bilan (KIPI) KOICA “Rivojlanish uchun rasmiy yordam” dasturi ijrosi yuzasidan muzokaralar oʻtkazildi.



Shuningdek, 23-sentabrga qadar Koreya delegatsiyasi respublikamizdagi vakolatli organlar bilan oʻzaro hamkorlik masalasida muzokaralar oʻtkazishi rejalashtirilgan.



## ADLIYA VAZIRI

## VA TDYU TALABALARI


Toshkent davlat yuridik universiteti-da Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vaziri Akbar Tashkulov va talabalar uchrashuvi tashkil etildi.

Ochiq va samimiy muloqot tarzida oʻtgan uchrashuvda vazir talabalarga shaxsiy tajribalari, hayot yoʻli va faoliyati, kasbiy faoliyatida duch kelgan turli bosqichlar haqida soʻzlab berdi.

Shuningdek, tadbir davomida talabalar Adliya vaziridan sohaviy va shaxsiy rivojlanishga oid savollarga javob oldi.

Uchrashuv yakunida eng yaxshi savol mualliflariga Adliya vazirligining esdalik sovgʻalari topshirildi.

Maʼlumot uchun: Toshkent davlat yuridik universitetida doimiy ravishda huquqshunoslik sohasining yetakchi mutaxassislari va talabalar uchrashuvi tashkil etiladi.



## 2 INSON QADRI UCHUN

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanini alohida belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Yangi Konstitutsiyaning 20-moddasiga muvofiq, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi, insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Mazkur norma kelgusida Asosiy qonunimizda belgilangan muhim prinsiplar asosida davlat va jamiyatni rivojlantirishning bosh qoidasiga aylanadi. Qolaversa, demokratik islohotlar va o'zgarishlarning asosiy maqsadi bo'lgan "inson qadri uchun" g'oyasining, inson qadr-qimmatini, sha'ni hamda huquq va erkinliklarining barcha sohalarida va kundalik hayotimizda birinchi o'rinda turishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inson qadri — Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'бири bilan aytganda, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infrazivilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi va sog'lom ekologik muhit yaratib berishni o'z ichiga oladi.

Shunday ekan, yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi fuqarolar huquq va erkinliklarini oliy darajada kafolatlab, insonparvarlik tamoyillarini yanada kuchaytiradi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarning faqat inson qadri yo'lida va fuqarolar manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishi uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Konstitutsiyamizda "inson-jamiyat-davlat" tamoyilining huquqiy jihatdan o'rnatilishi natijasida davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy qiyofasi o'zgardi. Shu bilan birga, Asosiy qonunimizda inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi alohida belgilandi.

Endilikda eng asosiy vazifa — Konstitutsiyada belgilangan hayotiy muhim qoida va tamoyillarni, inson huquq va erkinliklarining yangi kafolatlarini hayotimizga tatbiq etish hamda ularning huquqni qo'llash amaliyotida o'z ifodasini topishiga shart-sharoit yaratish hisoblanadi.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 8-mayda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi alohida farmon imzolandi.

Farmonda yangi tahrirdagi Kons-

**Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini, shuningdek davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.**

## KONSTITUTSIYA — huquq va erkinliklar kafolati



titsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilandi. Shuningdek, unda yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llanilishi qayd etib o'tildi.

Farmonning yana bir muhim jihati shundan iboratki, unda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmagani vaji bilan qo'llashni rad etish qat'iyon taqiqlandi.

Prezident farmoni mazmunidan kelib chiqqan holda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining hayotga tatbiq etilishi jarayoni **quyidagi 4 ta muhim yo'nalishdagi vazifalar** orqali amalga oshirilishini qayd etish mumkin.

**Birinchi yo'nalish — milliy qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida takomillashtirish.**

Bu bevosita norma ijodkorligi jarayoni bilan bog'liq murakkab va uzoq muddatli vazifalarni qamrab oladi. Zero, hozirgi kunda yurtimizda 29 mingga o'rtiq qonunchilik hujjatlari mavjud bo'lib, ularni Asosiy qonunimiz mazmuniga uyg'unlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Farmonda belgilanganidek, 2024-yil 1-yanvargacha qadar o'rta va uzoq istiqbolli suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqiladi va qonunchilik normalari ushbu konsepsiyalar asosida yanada takomillashtiriladi.

Shuningdek, Farmon bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dastu-

rida 32 ta qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ham tayyorlash nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, qonunosti hujjatlar ham to'liq xatlovdan o'tkaziladi hamda xatlov natijalariga ko'ra

yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilishi lozim bo'lgan qonunchilik normalarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Qolaversa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muntazam ilmiy ekspertizadan o'tkazib boriladi.

**Ikkinchi yo'nalish — huquqni qo'llash amaliyotini yangi Konstitutsiyada belgilangan normalarga muvofiqlashtirish.**

Ushbu yo'nalishda Asosiy qonunimizning o'zida belgilangan Konstitutsiyaning mamlakat butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi va to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi (15-modda) haqidagi prinsip alohida ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning oldingi tahrirdan asosiy farqlovchi jihatlardan biri ham aynan uning normalarini davlat organlarining huquqni qo'llash amaliyotida, shu jumladan, sud va boshqa huquq-tartibot idoralari faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash imkoniyatining mavjudligidir. Bu o'z navbatida huquqiy davlatning muhim va asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu konstitutsiyaviy prinsip asosida davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari muayyan bir holat yoki ish yuzasidan Konstitutsiyada belgilangan normalarga tayangan va aniq ko'rsatgan holda qarorlar qabul qiladi. Bu borada Asosiy qonunimiz normalarini bevosita amalda qo'llovchi mas'ullar ustidan doimiy nazorat o'rnatiladi. Bunda davlat organlari, ayniqsa, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi holati monitoring qilib boriladi.

**Uchinchi yo'nalish — yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi o'quv dasturlari, darsliklar va**

**boshqa qo'llanmalarni tayyorlash.**

Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni alohida ajratishning ahamiyati shundaki, bugungi kunda yurtimiz aholisining 55 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yosh avlod vakillari tashkil etishini hisobga olgan holda barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarida yoshlarning konstitutsiyaviy bilimlarini oshirib borish dolzarb masaladir.

birinchidan, barcha ta'lim turlari va bosqichlaridagi Konstitutsiyaning o'rganish bo'yicha o'quv rejalarini va ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish;

ikkinchidan, o'quvchilarga, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlarni yaratish choralari ko'riladi.

Shu bilan birga, joriy yil yakuniga qadar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ilmiy-amaliy sharh tayyorlanadi, bu o'z navbatida Asosiy qonun normalarini amalda tatbiq etishga ko'maklashish bo'yicha muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

**To'rtinchi yo'nalish — yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha aholi va ijrochilar o'rtasida keng targ'ibot ishlarini amalga oshirish.**

Bu yo'nalish ham keng ko'lamli vazifalarni, xususan, Konstitutsiya asosida turli shakldagi targ'ibot materiallarini tayyorlash va joylarda malakali huquqshunos, pedagog va boshqa mutaxassislardan iborat targ'ibot guruhlarini shakllantirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Targ'ibot tadbirlarini o'tkazishda zamonaviy interfaol usullardan, shuningdek axborot texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish — bunday tadbirlarning samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Bu borada o'zbek va xorijiy tillarda "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" yagona milliy portali va uning mobil ilovasi ishga tushiriladi. Bu ham bevosita fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning konstitutsiyaviy bilimlarini oshirish bo'yicha o'ziga xos platforma vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilari, ya'ni bevosita konstitutsiya normalarini amalda qo'llovchi shaxslarning konstitutsiyaviy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshiriladi.

Umuman olganda, yangi tahrirdagi Asosiy qonunimizning norma va tamoyillarini hayotga tatbiq etish keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlar majmuini talab qiladi, ularni sifatli va lozim darajada amalga oshirish esa barcha davlat tuzilmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va har bir fuqaroning asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim.

**Sherzod BAHRONOV,**

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Soʻz erkinligi demokratik maqsadlarga eltuvchi yoʻl hisoblanadi. Demokratik-liberal jamiyatda kimning haq va nimaning toʻgʻri ekanini bilishning yagona qonuniy usuli tanqid va savol ostiga qoʻyish orqali amalga oshirilgan ijtimoiy munozaradir. Tanqid esa soʻz erkinligiga imkon berilgan joydagina bordir. Turk olimi taʼkidlaganidek, “fikrlar erkin aytila olmaydigan jamiyatda ijtimoiy masalalar haqida toʻgʻri maʼlumotga ega boʻlish va nimaning jamiyat uchun foydali ekanini bahamjihat aniqlashga imkon beruvchi munozara-muzokara muhitini barpo etishning iloji yoʻq”.



“Fikrlarni erkin aytishning imkoni yoʻq boʻlsa, demak, erkinlik ham yoʻq”.

Valter

## SOʻZ ERKINLIGI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI



Soʻz erkinligi odatda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi, demak, matbuot erkinligining taʼminlanishi demokratiyaning eng asosiy shartlaridan biridir. Soʻz va matbuot erkinligini jamiyatni iqtisodiy farovonlikka eltuvchi vositalar qatorida tilga olinishi aslo yangilash boʻlmaydi. Jamiyatdagi illatlar-dan ommani va hukumatni oʻz vaqtida xabarot etish, hukumatga kelganlar va siyosiy qudrat egalari oʻz vakolatlarini suiisteʼmol qilishiga, korrupsiyaning ildiz oʻtishiga yoʻl qoʻymaslik erkin matbuotning vazifalaridandir. Demakki, soʻz va matbuot erkinligi, yaʼni “demokratiya hayot sifatini oʻrtiradi” Karl Marks matbuot erkinligining jamiyat rivojidadagi oʻrni haqida toʻxtal ekan, undan xalqqa va davlatga foyda kelishini taʼkidlagan va “matbuot erkinligining davlat qarzini koʻpaytirgani hech qayerda koʻrilmagan” degan edi.

Shunday ekan, demokratik jamiyat barpo etishni maqsad qilgan har qaysi davlat eng asosiy fuqarolik-siyosiy huquqlardan biri boʻlmish soʻz erkinligini, demokratiyaning asosiy shartlaridan biri hisoblanuvchi matbuot erkinligini taʼminlashi shart.

### HECH QANDAY TORTISHUVSIZ VA IKKILANISHSIZ TAʼMINLANISHI SHART

Zigmunt Bauman erkinlikni nafas olinadigan havoga oʻxshatadi. “Bu havoning nimaligini soʻrab oʻtirmaymiz, u haqda tashish vaqt ketkazmaymiz. Agar tiqilinish va havosiz bir xonada nafas olishga qiynalmayotgan boʻlsak”, – deya yozadi olim. Xuddi shuningdek, demokratiyani va erkin yashashni istagan har qanday jamiyat uchun soʻz erkinligi suv va havodek zarur. Soʻz erkinligi hech qanday tortishuvsiz va ikkilanishsiz taʼminlanishi shart.

Qisqacha aytganda, soʻz erkinligi fikrlarni ogʻzaki yoki yozma koʻrinishda aloqa vositalari orqali ifoda etishdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisida”gi xalqaro paktning 19-moddasida shunday deyiladi: “Har bir inson oʻz fikrini erkin bayon etish huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan qatʼiy nazar, yozma ravishda yoki matbuot orqali yoki ifodalashning badiiy shakllari yoki oʻz ixtiyoriga koʻra boshqacha usullarda turli axborot va gʻoyalarni qidirib, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi”.

Yangilangan Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 33-moddasida har kim fikrlash va soʻz erkinligiga egaligi belgilab qoʻyilgan. Shuningdek, “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonunning 5-moddasida “Har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, oʻz fikri va eʼtiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir”, deyilgan. “Axborot olish kafolatlari va erkinligi toʻgʻrisida”gi qonunga binoan har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi (3-modda). Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab axborot olish huquqi cheklanishi-ga yoʻl qoʻyilmaydi (“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonun, 8-modda). Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyat-lari, mamlakatning maʼnaviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini taʼminlash maqsadida cheklanishi mumkin (“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonun, 4-modda).

Oʻzbekistonda “soʻz erkinligi qonun loyihalarini muhokama qilishda, referendumlar oʻtkazishda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentini saylashda, Oliy Majlis va mahalliy idoralarni saylashda oʻzining mulohazalarini bayon qilish va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish yigʻinlarida va kundalik hayot faoliyatida ishtirok etish imkonini beradi”.

Gʻarbda ham, Sharqda ham uzoq vaqt fikrlarni ochiq, erkin ifoda etish hukmdorlar, zodagonlar va din peshvolarining “imtiyozi” boʻlib keldi. Jon Styuart Millning 1859-yilda chop etilgan “Erkinlik toʻgʻrisida” nomli asari fikrlash va soʻz erkinligining bevosita falsafiy himoyasiga bagʻishlangan. Mill ham Erskin kabi fikrlarning tushovlanishiga, taqiqlanishiga qarshi chiqadi. Uning taʼkidlashicha, taqiqlash uchragan fikr toʻgʻri boʻlsa, insonlar yangilishni toʻgʻriga almashtirish imkonidan mahrum boʻladi. Agar notoʻgʻri fikr taqiqlansa, haqiqatning botil bilan toʻqnashishi va yanada tushunarliroq boʻlishi uchun fursat boy beriladi.

XX asrning ikkinchi yarmida inson huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro qonunlarning yangi tizimi shakllandi.

Bu davrga kelib inson bilimni oshirib bordi va oʻz erkinliklariga hurmat bilan qaralishini talab qila boshladi. Xalqaro qonunlarda soʻz va matbuot erkinligiga amal qilinishi zarurligi oʻz aksini topa bordi. Zero, “Jon Lokk taʼkidlaganidek, qonunlarning maqsadi erkinliklarni yoʻq qilish yoki kamaytirish emas, balki muhofaza qilish va kengaytirishdir”.

### DEMOKRATIYA VA SOʻZ ERKINLIGI

Yangilangan Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasida “Oʻzbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega boʻlgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” deya qayd etildi. Demokratiya esa soʻz erkinligi-siz amalga oshmaydi. Boshqaruvning bunday shakli plyuralizmga yoʻl ochadi, oqibatda fikrlar raqobati yuzaga keladi va jamiyatda chinakam rivojlanish roʻy beradi. Zero, haqiqatlar fikrlarning oʻzaro raqobati natijasida tugʻiladi. Matbuot, ommaviy axborot vositalari fikrlar raqobati uchun eng maʼqul makon, axborot va soʻz erkinligi uchun eng qulay minbardir.

### AMALIY VA HUQUQIY MUAMMOLAR

Bugungi kunda Oʻzbekiston ommaviy axborot vositalari, axborot agentliklari orqali tarqatilayotgan axborotlarning mazmungan bir-biriga yaqinligi oʻzbek jamiyatida fikrlar turfa xilligi yetishmayapti, soʻz erkinligini taʼminlash borasidagi choralarini kuchaytirish zarurmi, degan savollarni tugʻdiradi. Ayniqsa, davlatga qarashli va keng omma uchun moʻljallangan gazeta-jurnallarning mazmungan bir-biriga yaqinligini aniqlash uchun alohida tahlilga hojat yoʻq. Soʻz erkinligi nuqtai nazaridan ushbu nashrlar samarasizdir. Zero, biror davlat organi nashrining mazkur organ faoliyati yoki hukumat siyosatiga tanqidiy yondashishini tasavvur qilish qiyin. Bunday nashrlarning asosiy faoliyati targʻibot-tashviqotdangina iborat boʻlib qolmoqda.

Soʻz erkinligini taʼminlash uchun ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid mavjud qonunchilikni takomillashtirish, qonunchilikdagi mavjud mavhumliklarni bartaraf etish zarur. “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonunning 5-moddasida esa ommaviy axborot vositalari oʻzlari tarqatayotgan axborotning xolisligi va ishonchiligi uchun belgilangan tartibda javobgar boʻlishi qayd etilgan. Shuningdek, “Jur-

nalistik faoliyatini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunning 6-moddasida ham xolis axborot taqdim etish jurnalistning majburiyati sifatida belgilangan. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonunning 7-moddasiga koʻra, ommaviy axborot vositalari oʻzlari tarqatayotgan axborotning haqqoniyligi uchun axborot manbai va muallifi bilan birgalikda qonunda belgilangan tartibda javobgar boʻladilar. Ammo bunday majburiyat alal-oqibat senzura, demakki, soʻz erkinligining cheklanishiga va Konstitutsiyaning buzilishiga olib keladi. Zero, Karim Bahriyev taʼkidlaganidek, “haqqoniylik” va “xolislik”lik tushunchalari subyektiv tarzda baho-lashga oid tushunchalardir.

Soʻz erkinligi – istagan joyda istagan narsani aytaverish huquqi, deyish oʻta gʻoʻr va yangilash taʼrifidir. Soʻz erkinligi, avvalo, masʼuliyatdir. Boshqalarning huquqiga daxl qilmaslik, insonga va demokratiyaga hurmat koʻrsatish masʼuliyatidir. Oʻz navbatida, demokratiya shunchaki boshqaruv shakli yoki maʼlum yillarda oʻtkaziladigan saylovda konformistlaracha ovoz berish emas, balki eng birinchi navbatda insonga va uning hayotiga, insonning oʻziga oʻzi ongli ravishda hurmat koʻrsatishdir.

Soʻz erkinligini boʻgʻish xuddi jismoniy zugʻum singari insonga nisbatan maʼnaviy zoʻravonlikdir. Boshqalarning fikrini taqiqlab, ularning taqdiri uchun hukm chiqarish, oʻz fikrini boshqalarni-kidan ustun qoʻyish diktatorlikdan boshqacha narsa emas. Fikrlar mahdudlikka hukm etilgan muhitda demokratiyaning mavjudligidan soʻz ochish kulgildir. Soʻz erkinligining boʻgʻilishi bevosita va bilvosita ijtimoiy norozilikning kuchayishiga olib keladi, bu esa oʻz navbatida jiddiy oqibatlarini keltirib chiqarish ehtimoli bor. Zero, Karl Marks taʼbiri bilan aytganda, fransuz inqilobining sababi senzura (yaʼni, fikrlarning taqiqlanishi) edi.

Bir fikrni taqiqlash, taqiqlovchilar oʻylaganidek, har doim ham oʻsha fikrga qarshi natijalarga olib kelmaydi. Bir fikrni taqiqlash uni oqillik bilan tanqid qilish va xatoligini fosh etish imkoniyatini yoʻqqa chiqaradi, aytish mumkinki, oʻsha fikrga daxlsizlik ato etadi. Qolaversa, taqiqlangan narsalarga eʼtiborning ortishi ehtimoli mavjud.

**Shahboz ISMOILOV,**

Sirdaryo tuman adliya boʻlimi bosh maslahatchisi

## 4 MEHNAT HUQUQLARINI O'RGANAMIZ

NAVOIY

ADLIYA XABARI

G'ozg'on shahar adliya bo'limi yangi binoda ish boshladi. Bu g'ozg'onliklar uchun bayramona tuha bo'ldi. Zamonaviy me'moriy yechimga ega binoda davlat xizmatlari markazi, davlat notarial idorasi, FHDY bo'limi, yuridik xizmat ko'rsatish markazi joylashgan. Bu esa g'ozg'onliklar uchun juda qulay imkoniyat.

G'OZG'ON TUMAN ADLIYA  
BO'LIMI YANGI BINODA

Tuman adliya bo'limida G'ozg'on shaharining 7 mingdan ortiq aholisiga huquqiy xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Barcha xizmatlar elektron navbat orqali yo'lga qo'yilgan. 5 ta xizmat ko'rsatish oynasida fuqarolarga 300 dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatiladi.

Binoning tantanali ochilish marosimida Navoiy viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i G. Primov, G'ozg'on shahar hokimi A. Bazarov, sektor rahbarlari, adliya boshqarmasi vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, mehnat faxriylari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi  
axborot xizmati

ANDIJON

Bo'ston tuman adliya bo'limiga "NAWI UQOB AFG" MChJ rahbariyati tomonidan Bo'ston tuman yo'llardan foydalanish UKning no-qonuniy harakatlari yuzasidan murojaat kelib tushdi. MChJ rahbarining tuman yo'llardan foydalanish korxonasi haqдорligini undirishda amaliy yordam berishni so'rab yo'llagan murojaati tuman adliya bo'limi mas'ullari tomonidan o'rganildi.

Tadbirkorni tang  
holga solgan  
korxonadan  
salkam bir milliard  
so'm undirildi

O'rganish jarayonida "NAWI UQOB AFG" MChJ bilan tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi o'rtasida 2022-yil 18-fevralda shartnoma tuzilgani aniqlandi. Mazkur shartnomaga asosan MChJ tomonidan unitar korxonaga 910 million so'mlik 130 tonna bitum mahsuloti yetkazib berilgan.

Biroq, korxonaga MChJ tomonidan bir necha marotaba ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan, zimmasidagi qarzdorligini to'lamagan va tadbirkorni iqtisodiy tang ahvolga solib qo'yan.

Shunga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan "NAWI UQOB AFG" MChJ manfaatini ko'zlab, tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi 910 million so'm asosiy qarz va 455 million so'm penya undirish yuzasidan Bo'ston tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud tomonidan mazkur iqtisodiy ish atroflicha muhokama qilindi. Sudning 2023-yil 22-avgustdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, MChJ foydasiga tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi 910 million so'm asosiy qarz va 22 million 500 ming so'm penya undirish belgilandi.

Isomiddin ERGASHEV,  
Bo'ston tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

QORAQALPOG'ISTON

Shu o'rinda ushbu kodeks bilan tartibga solinadigan yana bir asosiy jihatlardan biriga, ya'ni mehnatga haq to'lash, ish haqidagi ushlab qolish, kafolati va kompensatsiya to'lovlari to'lash tartiblariga to'xtalib o'tamiz.

Bunda mehnatga haq to'lash shartlari va miqdori ish beruvchi hamda xodim o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, bajariladigan ishning murakabligi va shartlari, xodimning kasbiy-malakaviy va ishchanlik sifatleri, uning mehnati hamda tashkilotning xo'jalik faoliyati natijalari hisobga olingan holda ushbu ish beruvchida amalda bo'lgan mehnatga haq to'lash tizimlariga muvofiq belgilanadi.

MEHNATGA HAQ  
TO'LASH SHARTLARIDAN  
XABARDORMISIZ?

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta'minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan takliflar hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasining butun hududida bir vaqtning o'zida belgilanadi. Bu tartib tashkiliy-huquqiy shakllaridan, mulkchilik shakllaridan va idoraviy bo'ysunuvdan qat'iy nazar, barcha ish beruvchilar uchun majburiydir.

Konstitutsiyamizning 42-moddasida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu normadan kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekiston hududida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 980 ming so'mni tashkil qiladi. Bu degani – ish beruvchilar tomonidan xodimlarga ushbu miqdordan kam bo'lgan miqdorda haq to'lanishi qat'iy taqiqlanadi.

Xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular

mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, o'n olti kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lanadi.

Ish beruvchi ish haqini, ta'til to'lovlari, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to'lovlarni va (yoki) xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to'laqatda hisob-kitob qilingan kunni o'z ichiga olgan muddatga har bir kechiktirilgan kun uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'sha vaqtda amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pulli kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart.

Xodimga to'lanishi lozim bo'lgan pulli kompensatsiyaning miqdori Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining o'n foizi miqdorida belgilanadi.

Mehnat kodeksiga muvofiq, ish vaqtdan tashqari ish uchun xodimlarga kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi.

Xodimning xohishiga ko'ra ish vaqtdan tashqari ish uchun oshirilgan haq to'lash o'rniga ish vaqtdan tashqari ishlab berilgan vaqtning davomiyligiga muvofiq keladigan qo'shimcha dam olish vaqtini berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin. Bunday holda ish vaqtdan tashqari ish uchun bir hissa miqdorida haq to'lanadi, dam olish vaqti uchun esa haq to'lanmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra xodimning yozma roziligi bilan, xodimning roziligi bo'lmagan taqdirda esa Mehnat kodeksida belgilangan talablarga muvofiq ish haqidagi ushlab qolinishi mumkin.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 279-moddasida belgilangan tartibda ish beruvchilar tomonidan xodimlarga kafolati to'lovlarni to'laydi. Kafolati to'lovlar xodim Mehnat kodeksiga, boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod qilingan yoxud o'z ixtiyoriga zid tarzda ishlash imkoniyatidan mahrum bo'lgan vaqt uchun o'rtacha ish haqi yoki tarif stavkasi (maosh) miqdoridagi pul to'lovlaridir.

Mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodimlar tomonidan mehnat majburiyatlarining yoki boshqa majburiyatlarining bajarilishi bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash maqsadida belgilangan pul to'lovlari kompensatsiya to'lovlaridir.

Ushbu kompensatsiya to'lovlari ish beruvchi – xodimlarni xizmat safarlariga jo'natganida, xodim boshqa joydagi ishga ko'chib o'tayotganida, malaka oshirish, qayta tayyorlash, kasbiy tayyorgarliklar uchun, xodimning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun va boshqa hollarda to'lanishi mumkin.

Yaratilayotgan ushbu imkoniyatlarining barchasi, avvalo aholining munosib turmush sharoitlarida yashashi, o'z huquq va imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun berilgan kafolatdir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Nurya BERDINIYAZOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi  
mas'ul xodimi



### QO'SHIMCHA ISHGA JALB QILISH MUMKINMI?

– Maktabda farrosh bo'lib ishlayman. Meni farroshlikdan tashqari boshqa ishlarga ham majburiy tartibda jalb qilishyapti. Lekin buning uchun oyligimga qo'shimcha to'lov to'lanmaydi. Farroshni qo'shimcha ishga jalb qilish mumkinmi?

**Dilshoda LUQMONOVA,**  
Pastdarg'om tumani

– Mehnat kodeksining 5-moddasiga ko'ra, majburiy mehnat taqiqlanadi. Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo'llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi. Shuningdek, ish beruvchi va sizning o'rtangizda tuzilgan mehnat shartnomasida sizning vazifalaringiz, huquqlaringiz va majburiyatlaringiz belgilangan. Demak, siz zimmangizga yuklatilgan vazifadan tashqari qo'shimcha ishni bajarishga majbur emassiz. Xizmat vazifangizga kirmagan ishni bajarish faqat sizning roziligingiz bilan, ish beruvchi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi va munosib ravishda haq to'lanadi.



### UY-JOYNI HADYA QILISH TARTIBI

– Amakim mening onamga, ya'ni yangasiga o'z uyini hadya qilishi mumkinmi?

**Jasur TOSHEV,**  
Kattaqo'rg'on tumani

– Fuqarolik kodeksining 505-moddasiga asosan umumiy birgalikdagi mulkni hadya qilishga umumiy birgalikdagi mulkning barcha ishtirokchilari roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Demak, amakingizning turmush o'rtog'i, farzandlari bo'lmasa, uy-joy yakka o'ziga tegishli bo'lsa, mulkni istagan shaxsga hadya qilishi mumkin. Bunga nisbatan cheklov yo'q.

Hadya shartnomasi bevosita, notarial tasdiqlanadi. Kerakli hujjatlar – hadya qiluvchi va hadya oluvchining

barcha shaxsiy hujjatlari, hadya qilinayotgan mulkka tegishli kerakli hujjatlar, masalan, kadastr, notarius tomonidan yana qo'shimcha hujjatlar so'ralishi mumkin.

### NARXNI KIM BELGILAYDI?

– Oilaviy ajrim masalasida advokatga murojaat qildim. Lekin advokat men bilan shartnoma tuzib, huquqiy maslahat, yuridik yordam ko'rsatgani uchun shartnomada ko'rsatilgan summadan ortiqcha pul so'radi. Men bu summamni advokatning o'ziga berishim kerakmi yoki shartnomada ko'rsatilgan hisobvarraqqa o'tkazishim kerakmi? Advokat xizmati narxini kim belgilaydi? Umuuman, shu advokatning harakatlari qonuniymi?

**Nodir XOLMATOV,**  
Samarqand tumani



– O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan advokatga to'lanadigan haq va advokatning topshiriqni bajarish bilan bog'liq xarajatlarini kompensatsiya qilish yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimda (shartnomada) nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda tegishli advokatlik tuzilmasining kassasiga kirim qilinishi yoki advokatlik tuzilmasining bankdagi hisobvarag'iga o'tkazilishi shart. Ya'ni, siz faqat shartnomada ko'rsatilgan summamni advokatning faoliyat yuritayotgan tashkiliy tuzilmasiga qarashli bank hisobvarag'iga o'tkazib berasiz. Advokatning ortiqcha summa talab qilishi noqonuniydir.

### HARBIYLAR NIKOHI QANDAY QAYD ETILADI?

– Men harbiyman. Boshqa viloyatda, ota uyimdan olisda xizmat vazifamni bajaraman. Yaqinda oila qurmoqchiman. Nikohimiz hududiylik tamoyiliga asosan qayd etiladimi?

**Mehridin RAHMATOV,**  
Paryariq tumani



– O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2013-yil 31-dekabrda ro'yxatdan o'tgan (ro'yxat raqami – 2547-son) buyrug'iga ko'ra, nikoh nikoh tuzishni xohlovchi shaxslardan birining yashash joyidagi FHDY organi tomonidan qayd etiladi. Alohida hollarda, istisno tariqasida (agar ota-onasi va nikohga kirayotgan yoshlar O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida yoxud uning tashqarisida yashab turgan bo'lsalar) nikohlanuvchi shaxslarning iltimosi va otasi yoki onasining yozma arizasiga ko'ra nikoh ota-onasining yoki ulardan birining yashash joyidagi FHDY organida ham qayd etilishi mumkin.



### LITSENZIYA OLISH

– Men yo'lovchi tashish uchun litsenziya olmoqchi edim. Buning qonuniy tartibi haqida ma'lumot bersangiz?

**Xursandbek MAQSUDOV,**  
Samarqand shahri

– Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi "Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashishga litsenziya olish uchun BHMning 90 foizi (Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilinganda BHMning bir baravari) miqdorida to'lov qilasiz. Xizmatni ko'rsatish muddati qisqa, ya'ni 1 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.



Savollarga "Madad" NNT Ishtixon tuman huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi  
**Nazokat QODIROVA**  
javob berdi

### XODIMNI ISHDAN BO'SHATISH TO'G'RIMI?

– Oilaviy sharoitim sababli ish joyimdan 1 oydan beri ish haqi saqlanmagan holda ta'til olganman. Yaqinda ish beruvchi meni ishdan bo'shatmoqchiligini aytdi. Uning shu harakatlari qonuniymi?

**Mohira TOHIROVA,**  
Samarqand shahri

– Mehnat kodeksining 163-moddasiga asosan, ish beruvchi quyidagi holatlarda xodimni xodim "bolnichniy"da bo'lganda (ya'ni, kasal bo'lganda) va ta'tillarga chiqqanida ishdan bo'shatishi mumkin emas. Garchi, siz 1 oydan beri ish haqi saqlanmagan holda ta'til olgan bo'lsangiz ham, ish beruvchining sizni ishdan bo'shatishi haqidagi gaplari qonunga zid.



### NOTARIUS XIZMATINING NARXI QANCHA?

– O'zimga tegishli bo'lgan mulkni ijara asosida boshqa shaxsga berib turmoqchiman. Buning uchun notarius tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar uchun to'lov miqdori qancha?

**Jaloliddin MUZRABOV,**  
Urgut tumani

– Adliya vazirining 2020-yil 29-mayda ro'yxatdan o'tgan (ro'yxat raqami – 3235) buyrug'ida ko'rsatilganidek, Mulq ijara shartnomalari Notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy va texnik tUSDagi qo'shimcha harakatlar uchun undiriladigan to'lov bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizini tashkil qiladi.

# QIZIQARLI QONUNLAR

## AVSTRALIYA

Avstraliyaning eng kulg'ili taqiqlaridan biri shundaki, siz yakshanba kunlari pushti (qizil) kalta ishtonlarda tashqariga chiqishga haqqingiz yo'q.

Avstraliyaliklar har doim lampochkani o'zingiz burab yechishingiz yoki o'rnatishingiz taqiqlanganini ta'kidlashadi – go'yo faqat malakali elektr ustasi bu imtiyozga ega. Ammo, hech bir avstraliyalik politsiyachi sizni bu "gunohlar" uchun jarimaga tortmaydi.

Agar siz G'arbiy Avstraliyada 50 kilogrammdan ortiq kartoshka sotib olsangiz, saqlasangiz yoki sotsangiz, pul to'lashingiz mumkin. Bu qonun Britaniya davlati bilan oziq-ovqat urushidan beri amalda qo'llanilib kelmoqda.

Shu mintaqada, agar siz ko'ksingiz bilan bir banka pivoni ezib tashlamoqchi bo'lsangiz, 1000 dollar jarima to'laysiz. Janubiy Avstraliyada esa to'y marosimini buzganlik uchun sizdan 10 ming dollar jarima undiriladi.

## BELGIYA

Agar sovuq mavsumda Belgiyada bo'lsangiz, aholining bir-biri bilan qorbo'ron o'ynashini taqiqlovchi kulg'ili qonuni eslang. Besh yil oldin Belgiya qonunchiligida qorbo'ron o'ynash va tosh otish bir xil narsa deb qaror qilindi. Sizning 100 yevrongiz siz uchun qadri bo'lsa, boshqa qiziqroq mashg'ulot: yaxshisi qorda sirpanchiq uchish yoki qor bola yasash bilan shug'ullaning. Axir, hamma joyda qorbo'ron o'ynash jazosiz emas!

## XITOI

Xitoyda suvda cho'kayotgan odamni qutqarish qonunga ziddir, chunki bu uning taqdiriga aralashish bilan barobar sanaladi.

Xitoyda talabaga kollejga kirishga ruxsat berishlari uchun u aqlli bo'lishi shart.

## KALIFORNIYA

Norko shahri "G'ayrioddiy uy hayvonlari shahri" norasmiy unvoniga ega. Shahar aholisi o'z uylarida kaltakesaklar, timsohlar, cho'chqalar, hatto an'anaviy itlar, mushuklar, quyonlar, hams-terlar va boshqalarni saqlaydilar.

Uy hayvonlari ba'zida uylaridan qochib ketishadi. Bu qonun karkidon bolasi mahalliy bog' va maysalarga katta zarar yetkazganidan keyin kuchga kiradi.

## KOLORADO

Shaharda katta va juda xushchaqchaq universitet bor. 2003-yilda US News & World Report jurnali ushbu ilmiy ehromni xursandchilikni sevadiganlar uchun eng zo'r joy deb atashdi. Talabalar universitet sportchilarining g'alabalarini shahar ko'chalarida ko'pincha yong'inlarga olib keladigan gulxan yoqish orqali nishonlashni yaxshi ko'radilar. Divanlar esa yoqilg'i manbasi sifatida ayni muddao.

Eng qizig'i, bu shaharda ayollarga ingichka baland poshnali oyoq kiyim kiyish taqiqlangan ekani Bunga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz? Gap shundaki, bir kuni ingichka poshnali oyoq kiyim kiygan bir ayol suv o'tkazgichning panjarasiga kirib, oyog'ini jarohatlagan. U ko'chalarini shunday xavfli qurilmalar bilan jihozlagan mahalliy hokimiyat organini hamma narsaga aybdor, deb sudga beradi. U sudga yutib chiqadi. Kelajakda shunga o'xshash da'volar paydo bo'lishining oldini olish uchun shaharning kattalari panjaralarni o'zgartirishdan ko'ra, ushbu qonunni qabul qilish arzonroq ekanini his qilishdi.

## GAVAYI

Gavayi shtatida jamoat joylarida va yo'llarda reklama plakatlarini joylashtirish taqiqlanadi.

Buning sababi juda qiziq, reklama sayyohlarning Gavayi tabiiy ko'rinishiga qoyil qolishlariga to'sqinlik qilmasligi kerak ekan!

**"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi yetakchi mutaxassisi Madina HAMDAMOVA tarjimai**

**O'tgan asrning yarmidan buyon giyohvandlik deya atalmish balo butun dunyo tinchlik-osoyishtaligi, mamlakatlar taraqqiyoti, oilalar mustahkamligi, go'daklar hayotiga rahna solib kelmoqda. Jahon jamoatchiligi u bilan har qancha jiddiy kurash olib bormasin, hanuzgacha giyohvandlik ildizlari qir qilganicha yo'q.**

## GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH STRATEGIYASI



O'zbekistonda ham giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyat doimo davlat va jamiyatning alohida e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ayni paytda esa davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan giyohvandlikka qarshi kurashishning yagona tizimini yaratish bo'yicha bir qator tashkiliy-huquqiy, profilaktik hamda iqtisodiy asoslar yaratilgan.

Agar raqamlarga nazar tashlasak, 2022-yilda respublikamizda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq 8 ming 280 ta jinoyat aniqlangan. Ashyoviy dalil tariqasida olingan giyohvandlik vositalarining 866,2 kilogrammi kontrabanda yo'li bilan kirib kelgan. 19 kilogramm "tovar" ixtiyoriy topshirilgan, 31 kilogrammi egasiz bo'lgan.

Albatta, giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomala qilinishiga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlaridan biri huquqiy asoslarni mustahkamlashdir. Shu maqsadda "2023 – 2027 yillarda O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish strategiyasi"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Qolaversa, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar to'g'risida"gi yangi

qonuni loyihasi ishlab chiqish, "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi qonuni hamda narkologik yordam to'g'risidagi boshqa qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish, Ichki ishlar va Sog'liqni saqlash vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining takliflari asosida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi tomonidan tizimli ravishda tasdiqlash hamda kuch va vositalarni birlashtirishni nazarda tutuvchi hukumat qarorini ishlab chiqish, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlarini qo'llash imkoniyatini cheklash orqali javobgarlik choralari kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, giyohvandlikka qarshi kurashishning uslubiy asoslarini rivojlantirish maqsadida ta'lim tashkilotlari o'quv rejalariga "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish asoslari" fanini kiritish, narkologik kasallikka chalingan shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatini mutaxassis psixolog tomonidan baholash va ijtimoiy-psixologik portretini hududlar kesimida tuzish va monitoring qilishni yo'lga qo'yish, yoshlarning, ayniqsa, voyaga etmaganlarning sog'lig'iga zararli ta'sir ko'rsatuvchi kompyuter o'yinlarini aniqlash, ularning ro'yxatini shakllantirish va taqiqlash, shuningdek, bunday o'yinlarni o'ynash holatlariga barham berish bo'yicha ta'sirchan nazorat mexanizmlarini belgilash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni ekspress aniqlash jarayonida texnik vositalardan foydalanish joriy etish, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor-qidiruv bo'linmalarini ushbu yo'nalishdagi zamonaviy texnik vositalar hamda maxsus ta'minotini ish natijasiga qarab tizimli oshirib borishni ta'minlash zarur.

Agar strategiyani amalga oshirishda yuqorida tilga olingan va boshqa tegishli choralar ko'rilsa, bir qator ijobiy natijalarga erishish mumkin. Jumladan, strategiya giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlarini ishlab chiqishda uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish tizimi sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tariladi. Pirovardida fuqarolarning sog'lig'ini saqlash, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va jamoat xavfsizligini ta'minlash kafolatlarini mustahkamlash bilan bir qatorda ushbu turdagi jinoyatlar kamayadi. Eng muhimi, amaldagi normativ huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ushbu sohadaga yangi texnologiyalarni joriy etish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sa'y-harakatlarini yanada samaraliroq bo'lishiga xizmat qilish bilan birga jamiyatning barqaror rivojlanishi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi ta'minlanishiga erishiladi.

**Abbos PAYZIYEV,**

Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra katta o'qituvchisi

2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonining 3-bandiga ko'ra, quyidagilar maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida belgilandi. Ya'ni, 2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi. Bunda 2023/2024 o'quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma'lumotli talabgorlar stajyor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va ular ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi talab etiladi;

stajyor-o'qituvchilarga ular kasbiy sertifikat olinguniga qadar oliy ma'lumotli (toifasiz) o'qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo'llaniladi, deyilgan.

Shu sababli xorijiy tillar o'qituvchilari ham shu o'quv yili mobaynida sertifikat olsa bo'lmaydimi, degan mazmundagi savollar paydo bo'lmoqda. Albatta, xorijiy tillar o'qituvchilari ham shu o'quv yili mobaynida sertifikat olsa bo'ladi, lekin kasbiy sertifikat olishi kerak.


Endi savolning yuqoridagi qismiga javob beramiz. Xalq ta'limi vazirligi (hozirgi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi)ning vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarida pedagog xodimlarni malaka talablarini belgilash haqidagi 2019-yil 7-dekabrda 393-sonli buyrug'iga asosan umumta'lim maktablarida fan o'qituvchisi lavozimi uchun kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot yoki qayta tayyorlov kursini tugatganlikni tasdiqlovchi diplomli bo'lish kabi malaka talablari belgilangan. Bu talab hali ham amalda bo'lib, u malaka talablarini belgilayapti.

Kimdir bu vazirlik hozirgi kunda yo'q-ku, u qabul qilingan hujjat o'z kuchidami, degan savolni berishi mumkin. "Normativ-huquqiy hujjatlari to'g'risida"gi qonunning 15-moddasiga ko'ra, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqi berilgan vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora qayta tashkil etilgan taqdirda, huquqiy vorisiga o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlar

**Bugungi kunda juda ko'plab savollar ayni bir mazmunda bo'lmoqda. Ya'ni, xorijiy til o'qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilishda kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi qo'yilyapti, ish staji inobatga olinmayapti, u maktabdan bu maktabga ishga o'tilsa ham sertifikat so'ralyapti. B2 darajadagi sertifikat majburiymi?**



## B2 DARAJADAGI SERTIFIKAT MAJBURIYMI?



qabul qilish huquqi bilan birga ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish vakolatlari ham o'tadi, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tugatilgan yoxud u tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqini huquqiy vorisiga bermasdan qayta tashkil etilgan taqdirda, ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish vakolatlari yuqori turuvchi organga yoki boshqa vakolatli organga o'tadi.

Vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora qayta nomlangan taqdirda, uning ilgari nomi ko'rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarning qayta nomlanishiga oid qismiga o'zgartish yoki qo'shimcha kiritilishi lozim. Bunday o'zgartishlar yoxud o'zshimchalar kiritilguniga qadar ilgari nomi

o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi qayta nomlangan vazirlikka, davlat qo'mitasiga yoki idoraga nisbatan to'liq hajmda tatbiq etiladi.

Vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora maqomining o'zgarishi ular tomonidan ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi tugatilishiga olib kelmaydi, deb belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, bu buyruq qachonki vazirlik uni bekor qil-magunicha yoki o'zgartirmagunicha o'z kuchini yo'qotmaydi.

### MALAKA TALABLARI O'Z KUCHIDA

Buni B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim, degan talabga nima aloqasi bor dersiz?

Albatta, aloqasi bor. Gap shundaki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi qarori 9-bandidagi 2022/2023 o'quv yilidan boshlab davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchilari lavozimlariga ishga

yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim, deyilgan talab vazirlikning 393-sonli buyrug'i bilan belgilangan malaka talablariga qo'shimcha bo'ldi.

Ya'ni, xorijiy til o'qituvchilari uchun malaka talablari o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot yoki qayta tayyorlov o'tganlik va kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega bo'lishi kerak bo'lib qoldi.

Keyinchalik, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-oktabrdagi 07/1-1287-son topshirig'i asosida umumta'lim maktablarida xorijiy tillarni o'qitish jarayonining davomiyligini ta'minlash maqsadida 2022/2023 o'quv yili uchun istisno tariqasida bu sertifikat talab etilmagan va mazkur talab 2023/2024 o'quv yilidan boshlab kuchga kirishi belgilandi.

Ya'ni, bu yildan boshlab faqatgina yangi ishga kirayotgan xorijiy tillar o'qituvchilaridan B2 darajadagi sertifikat talab etiladi.

E'tibor bering, bu tartib hozirgi kunda maktablarda ishlab kelayotgan xorijiy tillar o'qituvchilariga tegishli emas. 2024/2025 o'quv yiliga qadar esa maktablarda faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi talabi qo'yiladi.

Ya'ni, amalda ishlab kelayotgan nemis tili fani o'qituvchisidan hozir sertifikat talab qilish noto'g'ri. Bu yil o'qituvchi ikkinchi malaka toifasiga munosib ravishda dars berib tursa bo'laveradi.

Kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega xodimlar ham birinchi marotaba pedagogik lavozimiga ishga kirayotgan bo'lsa, stajyor-o'qituvchi sifatida ishga qabul qilinadi.

Xorijiy til o'qituvchisi lavozimiga ishga kirayotgan shaxslar ish stajidan qat'iy nazar kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatga ega bo'lishi kerak. U birinchi marotaba ishga kirayotgan bo'lsa, stajyor-o'qituvchi lavozimiga olinishi kerak.

**Sherzodbek TOLIBOV,**  
3-darajali yurist

### E'LONLAR

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 152-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 12-sentabrda 153-um-son buyrug'iga asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M. Malikovga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi komissiya qaroriga asosan 1 oy muddatga (2023-yil 13-sentabrdan 2023-yil 13-oktabrgacha);

Zarbdor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius I. Artikmurodovaga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi

1 oy muddatga to'xtatib turilganligini inobatga olgan holda notarius litsenziyasi va maqomi 6 oy muddatga (2023-yil 21-avgustdan 2024-yil 21-fevralgacha) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi to'xtatildi.


\*\*\*

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 5-sentabr kuni "O'roq Sobirov" advokatlik byurosi advokati Sobirov O'roq Narzillayevichga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 28-dekabrda berilgan 0009-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Adliya vazirligi jamoasi vazirlikning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari ijrosini nazorat qilish boshqarmasi bosh maslahatchisi Bobur Atemovga opasi **NAVBAHOR SHERMATOVA**ning vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

## 8 ADABIY AYVON

## Tuya



Tuya avval juda chiroyli ko'rinishda bo'lgan. Uning tarvaqaylagan shoxi va qalin junli dumi bor ekan. Bir kuni u chanqog'ini qondirish uchun daryo oldiga kelibdi. Suv ichgan sayin o'ziga mahliyo bo'lmish. Shu choq uning yoniga yugurib kelgan kiyik:

– Marhamatli tuya, men bugun mehmonga bormoqchi edim. Shoxingizni bir kechaga berib turing, – debdi.

Tuya unga shoxini berib yuboribdi.

Shu davrlarda ot dumsiz bo'lgan ekan. Shuning uchun u ham tuyani oldiga kelib, uzun va yaltirab turgan dumini bir kunga berib turishini iltimos qilabdi. Tuya dumini ham beribdi.

Oradan ko'p yillar o'tib ketdi. Shu paytgacha tuyaning shoxi va dumini olganlar qaytarib berishmabdi. Bu haqda kiyikka eslatgan ekan, u:

– Qachon duming o'sib yerga tegsa, shoxingni qaytarib beraman, – debdi.

Ot ham unga shunday javob qaytaribdi:

– Dumingni shoxing o'sib chiqqan kuni olasan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, tuya daryoga suv ichkani borsa, atrofga tez-tez alanglab qarar, o'zidan qarzi borlarni kutib yasharkan.

BO'RI  
tashlangan tog'

Qachonlardir Tarbaq ata tog'larining o'ngirlarida haybatli bir ayol echklarini boqib, jundan kiyim-kechaklar to'qib kun kechirgan ekan. U ko'pincha baland Tarbaq ata tog'ida yastanib o'tirgan chog'ida uning ikki oyog'i kichik Tarbaq ata tog'ining ustida turarkan.

Kunlarning birida uning podasiga bo'ri hujum qilabdi. Bu ko'rgan ayol bo'ri tomonga jun yigirayotgan urchug'ini uloqtiribdi. Urchug' Sari Dalaga borib tushib, u yerda abadiy qolib ketibdi. Shundanmi, shimoliy Tarbaq ata va janubiy Qalbin tog'lari o'rtasidagi tekislik – Sariq Dala hamda ular o'rtasida o'sib chiqqan tog' "Bo'riga tashlangan" deb ataladigan bo'libdi.

## Issiqko'e

Qadim zamonlarda bu yerlarda tevaragi tog'lar bilan o'ralgan boy-badavlat shaharlar bo'lgan. Aholi ichimlik suvini yerosti suv havzalaridan olishar, ularning kaliti tarki dunyo qilgan kishida saqlanar ekan. Kimga qachon kalit kerak bo'lsa, undan olishib, suvni berkitib turgan qopqoqni ochishar va suv olgach kalitni yana unga qaytarib berishar ekan.

Bir safar kalitni qiz bola olibdi. U sevgilisi bilan suv havzasi yonida uchrashish niyatida ekan. Tasodifan u kalitni suvga tushirib yuboribdi va qo'rqanidan qochib qolibdi. Suv esa otilib chiqaveribdi, chiqaveribdi. Butun shaharni suv bosib, uning o'rnida katta ko'l paydo bo'libdi. Ko'lining tubida qolgan shaharlar hozir ham ko'rinib turadi.

## Ili va Qoratol

Balxash sehrgarining Ili ismli go'zal qizi bo'lib, uning dovrug'i butun cho'l-biyobonga yoyilgan ekan. Unga uylanish istagida bo'lgan barcha badavlat boylaru xonlarning sa'y-harakati behuda ketibdi. Qizning husn-tarovati oldida ular hech kim emas ekan.

Shunda Balxash kuyovlikka da'vog'lar uchun musobaqa uyushtirishga qaror qilibdi:

– Kim aqlli, chaqqon va kuchli bo'lsa, o'sha lliga uylanadi.

Bu haqida Qoratol ham eshitibdi. Yigit juda faqir bo'lsa-da, ikkita uchqur va abjir, kuchli va qo'rqmas oti bor ekan. Qoratol ham o'z baxtini sinab ko'rish uchun sehrgar saroyiga yo'l olibdi.

Balxash esa bu kambag'al yigit bilan gaplashishni ham istamabdi. Ili bo'lsa yigitni bir ko'rishdayoq yoqtirib qolibdi va otasidan unga musobaqalarda qatnashishga ruxsat berishini so'rabdi.

Qoratol boyvachchalar va xonlar ishtirok etgan kurash va poygada qatnashib, g'olib bo'libdi. Ammo Balxash o'z va'dasida

turmabdi. Bechorahol yigitni kuyov qilishga or qilibdi.

Go'zallikda tengi yo'q qiz kun bo'yi yig'labdi. Kechasi esa uning odiga Qoratol kelib, o'z taklifini aytibdi:

– Agar meni sevsang, qochishimiz kerak! Ili bu taklifni jon deb qabul qilibdi. Ular shu kechadayoq Qoratolning uchqur otiga mingashib uzoq yerlarga ketishibdi.

Qizini qochib ketganidan xabar topgan Balxash g'azab bilan cho'l momoguldiragidan ham kuchli va dag'dag'ali ovozda ularning bu yo'ldan qaytishini talab qilibdi. Ili bilan Qoratol esa ortga qaytishni istashmabdi. Ular Qoratol yashaydigan ovul tomon yo'l olishibdi. Shunda sehrgar cho'lga chiqib qochoqlar otining oyoqlari ostida ulkan ko'lga aylanibdi. Bu ko'l shu davrlardan boshlab Balxash deya ataladi. Ili bilan Qoratolni esa sehrgar shu ko'lning turli tomoniga shovullab quyuladigan daryolarga aylantirib qo'yibdi. Ular bir necha asrdiki behuda bo'lsada, bir-bilriga yetishish istagida entikib, to'liqinab oqib yotibdi.



Toshpo'lat TUGALOV tayyorladi.

INSON  
va qonunMUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI\*Adolat\* milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0061-raqam bilan  
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7897



9782010789008

Bosh  
muharrirAsliddin  
ALIMARDON

## TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.Navbatchi  
Xurshid SultonovSahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"  
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter  
bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq  
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-  
da chop etildi.Korxonada manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,  
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraj – 3500  
Buyurtma – 2735Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 18:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5